

MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT USTAVIGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası o‘qituvchi

E-mail: d.imomniyozov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda mas’uliyat cheklagan jamiyatning Ustaviga o‘zgaritirish kiritish tartibi qonun normalari tahlil qilingan qilingan holda ochib berilgan. Mazkur ish nazariy emas, amaliy xususiyatga ega. Ishda MCHJ Ustaviga o‘zgaritish kiritish uchun amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligi, umumiy yig‘ilishni chaqirish tartibi, umumiy yig‘ilish majlisini yuritish va bayonnomani rasmiylashtirish, Ustavni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: mas’uliyati cheklagan jamiyat, umumiy yig‘ilish, navbatdagi yig‘ilish, navbatdan tashqari yig‘ilish, bayonnoma, ovoz berish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish.

АННОТАЦИЯ

В данном тезисе раскрывается порядок внесения изменений в Устав Общества с ограниченной ответственностью с анализом норм права. Данная работа носит не теоретический, а практический характер. В данной работе изложены соображения о последовательности действий, которые необходимо предпринять для внесения изменений в Устав ООО, порядке созыва общего собрания, ведения общего собрания акционеров и составления протокола, перерегистрации Устава.

Ключевые слова: общество с ограниченной ответственностью, общее собрание, внеочередное собрание, внеочередное собрание, протокол, голосование, перерегистрация.

O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonuni 30-moddasiga muvofiq jamiyat ustaviga o‘zgartirishlar kiritish ushbu jamiyatning **oliy organi** hisoblangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishining mutloq vakolatiga kiradi. Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi **ikki xil** ko‘rinishda o‘tkaziladi. Ya’ni:

- 1) navbatdagi yig‘ilish;
- 2) navbatdan tashqari o‘tkaziladigan yig‘ilish.

Navbatdagi yig‘ilishni o‘tkazish tartibi, muddatlari jamiyat ustavida belgilanadi (lekin yiliga kamida bir marta o‘tkazildi). Ushbu yig‘ilish jamiyatning ijro organi tomonidan chaqiriladi. Mazkur qonunning 31-moddasiga ko‘ra umumiy yig‘ilish har bir moliya yili yakunlangandan so‘ng keyingi moliya yilining birinchi olti oyi davomida o‘tkazilishi belgilangan. Misol uchun “Best” MCHJ ishtirokchilarning 2019-yil uchun umumiy yig‘ilishi 2020-yilning iyul oyigacha bo‘lgan muddatda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Navbatdan tashqari o‘tkaziladigan yig‘ilish esa jamiyatning ustavida belgilangan vaziyatlarda yoki ushbu jamiyat hamda uning ishtirokchilari manfaatlarini yuzaga kelgan paytda ijro organi tomonidan chaqiriladi. Mazkur yig‘ilish uni o‘tkazish bo‘yicha talab olingan kundan e’tiboran qirq besh kun ichida o‘tkazilishi lozim. Navbatdan tashqari yig‘ilishda jamiyat ishtirokchilari (ulushchilari) o‘z takliflarini berishlari mumkin bo‘ladi.

Jamiyatning umumiy yig‘ilishi quyidagi tartibda chaqiriladi. Dastlab ushbu yig‘ilishni chaqiruvchi ijro organi uni o‘tkazishdan o‘ttiz kun oldin uning ishtirokchilarini xabardor qiladi. Bunda u har bir ishtirokchiga majlis kuni, vaqti hamda manzilini, shuningdek unda ko‘riladigan masalalarni ilova qilgan holda buyurtma xat orqali yoki jamiyatning ustavida belgilangan boshqa usulda yetkazadi.

Har bir ishtirokchi jamiyat umumiy yig‘ilishining kun tartibiga qo‘yilgan masalarga qo‘shimcha kiritish huquqiga ega bo‘lib, u yig‘ilish o‘tkazilishidan o‘n besh kun oldin o‘z takliflarini kiritishga haqli hisoblanadi. Misol uchun “Best” MCHJning A ismli ishtirokchisi umumiy yig‘ilishning kun tartibiga qo‘shimcha sifatida ushbu jamiyatning Ustavining jamiyat foydasini taqsimlash qismiga o‘zgartirish kiritishni taklif qilishi mumkin.

Umumiy yig‘ilishda qatnashayotgan ishtirokchi unga qo‘yilgan masalalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish hamda undagi masalalar yuzasidan ovoz berish huquqiga ega. Yuqoridagi qonunning 34-moddasiga ko‘ra jamiyatning har bir ishtirokchisi umumiy yig‘ilishda jamiyat ustav fondidagi ulushiga mutanosib ravishda ovozlar soniga ega bo‘ladi. Ya’ni “Best” MCHJning A ismli ishtirokchisi ustav fondida qirq ikkita (18%) ulushga egalik qiladi. Ovoz berish paytida uning ovozi shu foizni tashkil etadi.

Umumiy yig‘ilishga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha ularni qabul qilish uchun ovozlarni hisoblash quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi. Jumladan:

- Jamiyat ustav fondiga o‘zgartirish kiritish masalasi bo‘yicha ishtirokchilar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovoz berganda qabul qilinadi hamda u haqiqiy hisoblanadi;
- Jamiyatni qayta tashkil etish yoki uni tugatish to‘g‘risida jamiyatning barcha ishtirokchilari bir ovozdan qaror qabul qilinishi lozim. Shundagina ushbu qaror haqiqiy hisoblanadi.
- Jamiyatning ustaviga o‘zgartirish kiritish masalasida ham ishtirokchilarning bir ovozdan qaror qabul qilish kerak.
- Boshqa masalalar yuzasidan umumiy ishtirokchilar sonining ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilish mumkin.

Jamiyat umumiy yig‘ilishi o‘tkazilayotgan vaqtda yig‘ilish bayonnomasi yozib boriladi. Unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ishtirokchilar umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan vaqt va joy;

- yig'ilishda qatnashayotgan ishtirok etuvchilar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;
- yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilishning kun tartibi.(35-modda)

Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar va ular bo'yicha ovoz berish yakunlari, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar aks ettirilgan bo'lishi shart.

Biz yuqorida jamiyat umumiy yig'ilishi qanday tartibda chaqirilishi, unga hal etiladigan masalalar haqida fikr yuritdik. Endi esa o'z navbatida jamiyat ustaviga o'zgartirish kiritish qanday tartibda amalga oshirilishini tahlil qilamiz. Demak, jamiyatning ustaviga kiritiladigan o'zgartirish haqidagi taklif umumiy yig'ilish o'tkazilishidan oldin qolgan barcha ishtirokchilarga yuboriladi. Misol uchun “Best” MCHJning AAA ismli ishtirokchisi jamiyat ustav fondini jamiyatning joriy yildagi foydasi hisobiga ko'paytirish taklifini ilgari surdi. Avval ta'kidlanganidek ushbu taklif umumiy yig'ilish o'tkazilishidan oldin barcha ishtirokchilarga yuborildi. Jamiyat umumiy yig'ilish o'tkazilishi boshlangach majlis raisi barcha ishtirokchilar orasidan ovoz berish orqali saylanadi. Bunda har bir ishtirokchi bir ovozga ega bo'lidi. Majlis raisi saylangach, u hal etiladigan asosiy masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Har bir masala muhokamaga qo'yiladi. Shundan so'ng umumiy ovoz berish boshlanadi. Yuqorida aytilganidek jamiyat ustav fondiga o'zgartirish kiritish uchun jami ishtirokchilarning uchdan ikki qismi buni ma'qullab ovoz bergan holda u haqiqiy hisoblanadi. Mazkur fikrimizni yana misol yordamida tushuntirib o'tamiz. 2019-yilning 15-sentabr kuni “Best” MCHJ(jamiyatda jami 67 nafar ishtirokchi mavjud)ning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi belgilangan. Kun tartibidagi asosiy masala jamiyat ustav fondini ko'paytirish hisoblanadi. Jami ulushchilar ushbu masala yuzasidan fikr mulohazalarni bildirib o'tishdi. Shundan so'ng ovoz berish boshlandi. Agarda ushbu masala yuzasidan jami ishtirokchilarning uchdan ikki qismi ya'ni 44 nafar ishtirokchi uni yoqlab ovoz bersa ushbu taklif qabul qilingan hisoblanadi. Lekin ushbu masalaga qarshi ovozlar ko'pchilikni tashkil etsa, masalan 30 yoki 35 nafar

ishtirokchi qarshi chiqsa, mazkur masala qanoatlantirilmaydi. Bu ikki holatda ham qarshi taraflar ushbu masalada o‘z huquqlari buzilganligini yoki jamiyatning umumiy manfaatlariga zarar yetishi mumkinligini asos qilib sudga murojaat qilish huquqlari mavjud (qonunning 41-moddasi). Sud baxsli holatga sabab bo‘lgan masala yuzasidan shikoyat qilgan ishtirokchining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmasa yoki qoida buzarlilik jamiyat umumiy manfaatlariga zarar yetkazmasa, umumiy yig‘ilish qarorini o‘z kuchida qoldirishga haqli hisoblanadi.

Umumiy yig‘ilishda ustav fondini ko‘paytirish masalasi bo‘yicha ovoz berish yakunlanib, qaror qabul qilingach ustavga ham o‘zgartirish keritish lozim. Jamiyat ustaviga o‘zgartirish kiritish jami ishtirokchilar bir ovozdan qabul qilgan qarori asosida amalga oshiriladi. Bunda ham har bir ishtirokchi bir ovozga ega bo‘ladi. Agar ishtirokchilar ustavga o‘zgartirishni bir ovozdan maqullab ovoz bermasa, bu to‘g‘risida qaror qabul qilinmaydi.

Umumiy yig‘ilish qarori qabul qilingandan so‘ng Ustavga kiritilgan o‘zgartirish uni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishni talab qiladi. Chunki undagi o‘zgartirish ro‘yxatdan o‘tgandan so‘nggina haqiqiy hisoblanadi va shu jamiyat va uchinchi shaxslar uchun majburiy xarakter kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.02.2017 yildagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizom 21-bandiga ko‘ra ustavga kiritilgan o‘zgartirish qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerakligi qayd etilgan. Bunda quyidagi hujjatlar ilova qilinishi talab etiladi:

- tadbirkorlik subyekti vakolatli boshqaruv organining ta‘sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qarori;
- davlat tilidagi ta‘sis hujjatlari;
- tadbirkorlik subyekti vakolatli organining ta‘sis hujjatlarida e‘lon qilingan ustav fondi miqdori shakllantirilganligi to‘g‘risidagi hujjat — ustav fondi miqdori oshirilganda;

- tadbirkorlik subyekti — yuridik shaxs ishtirokchilari tomonidan qo‘shimcha hissalar va uchinchi shaxslar tomonidan to‘la miqdordagi hissalar kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (pul mablag‘lari o‘tkazilganligi to‘g‘risida bankning ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi hududiga mol-mulk olib kirganligini tasdiqlovchi bojxona hujjati, mol-mulkning oldi-berdi dalolatnomasi, kiritilayotgan mol-mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat va boshqalar) — ustav fondi miqdori oshirilganda;

- ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat (shartnoma, xat, huquqiy vorislik, meros, sud qarori va shu kabilar) — ulush (hissa) boshqa shaxsga o‘tganda. Bunda ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalarni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda, muassislarning so‘rovnomada ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga Tizim tomonidan yuborilgan xabarnoma va ularning muassisligini Yagona identifikatsiyalash tizimi orqali identifikatsiyalashni tasdiqlash yo‘li bilan har bir muassising roziligi mavjud bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonuni
2. Vazirlar Mahkamasining 09.02.2017 yildagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizom.
3. ИММОМОВ, Н. (2017). CRITICAL ANALYSIS OF DIVISION OF LEGAL ENTITIES INTO TYPES. *Юридик фанлар ахборотномаси*, (1), 68-74.
4. Umrbek o‘g‘li, M. F. (2022). XO‘JALIK JAMIYATI ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN KORPORATIV HUQUQLARNING SUIISTE‘MOL QILINISHI MASALALARI. *Conferencea*, 29-33.
5. O‘G‘Li, I. D. B. (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG‘ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY

OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 430-447.